

**Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasida
Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga
qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni
rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-son Qaroriga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqacha tarzda ko'maklashgan xodimlar – Sanepidqo'm xodimlari;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish – tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish
Sanepidqo'mning "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati", "Odob-axloq qoidalari", "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", "Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizom" kabi ichki me'yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruv jarayonida bevosita ko'maklashish;

maxsus komissiya - korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish uchun Sanepidqo'm huzurida tuzilgan komissiya.

korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61¹, 193¹ 193² va 193⁴-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korruptsiyaga oid jinoyatlar – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 192⁹ va 192¹⁰, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar.

aloqa kanallari – Sanepidqo'm tizimida mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xodimlar tomonidan xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari.

3. Sanepidqo'mda mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar, shu jumladan, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida quyidagi aloqa kanallari orqali ma'lumot berilishi ta'minlanadi:

Ishonch telefon — 998 74-227-60-19;

rasmiy veb-sayti — www.and/sanepidxizmat.uz;

facebookdagi sahifasi — <https://www.facebook.com/andijon SEO va JSX />;

Facebook ijtimoiy tarmog'idagi aloqa kanali	https://www.facebook.com/andijon SEO va JSX /
Telegram messengeridagi aloqa kanali	www.and/sanepidxizmat.uz
Ishonch telefoni	+998 74-227-60-19
Rasmiy veb-saytdagi aloqa kanali	www.and/sanepidxizmat.uz

2-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish asoslari va turlari

4. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan xodimlarga nisbatan pora taklif qilgan shaxs haqida yoki o'zlariga ma'lum bo'lgan boshqa xodimlarning korruptsiyaga oid huquqbuzarligi haqida aloqa kanallari orqali xabar berishi natijasida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

nodavlat tijorat tashkilotining yoki davlat tashkilotining yoxud fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan xodimga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida bergan xabari asosida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

5. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar Maxsus komissiya taqdimnomasi asosida quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti yoki sovg'a bilan rag'batlantiriladi:

korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarga esdalik sovg'a qiymati - bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha;

korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida;

pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa;

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa;

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foizi miqdorida;

ko'p yoki juda ko'p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foizi miqdorida.

6. Xodim korruptsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

7. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabar Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur xabar tasdiqlanganda;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

8. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Sanepidqo'mning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Nizomning 1-ilovasida keltirilgan Maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Maxsus komissiyaning taqdimnomasi asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar Maxsus komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Sanepidqo'mda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

soha xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarliklar haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta'qib qilish kabi tazyiqlarga yo'l qo'yilmaslik va taqdim etilgan ma'lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning rozilgisiz oshkor qilinmaslikni nazorat qilish.

11. Rag'batlantirish qonuniylik, adolatlik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

12. Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida **o'ttiz sutka mobaynida** o'z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

13. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida belgilanadi.

14. Taqdimnomaga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar.

15. Maxsus komissiya taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Sanepidqo'm raisining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

16. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosiligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

17. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

18. Rag'batlantirish bo'yicha Maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida ijro uchun yuboriladi.

19. Maxsus komissiyaning raisi komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

20. Maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida ichki buyruq chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng besh ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng uch ish kuni ichida topshiriladi.

21. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi Sanepidqo'm raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

22. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning reyestri Korrupsiyaga qarshi kurashish (Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat) bo'limi tomonidan yuritiladi.

23. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

24. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

*Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi
qo'mitasida Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan
yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan
xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga ilova*

**Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga
qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni
rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiya tarkibi**

T/p	Maxsus komissiya a'zosining F.I.Sh	Maxsus komissiya a'zosining lavozimi
1.	I.Sotvoldiyev	Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari -Maxsus komissiya raisi
2.	B.Begimqulov	Boshliqning o'rinbosari - Maxsus komissiya a'zosi
3.	S.Ashiyev	Bosh xisobchi-Maxsus komissiya a'zosi
4.	A.Kenjaye	Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul - Maxsus komissiya a'zosi- kotib
5.	N.Axunova	Matbuot xizmati boshlig'I – Mahsus komissiya a'zosi